

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.14/30.12.2019.I.84.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**SALIMOVA YULDUZ ISAKOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI  
FAOLLASHTIRISH**

**08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Salimova Yulduz Isakovna**

О‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish..... 5

**Салимова Юлдуз Исаковна**

Активизация урбанизационных процессов в Узбекистане..... 29

**Salimova Yulduz Isakovna**

The intensification of urbanization processes in Uzbekistan..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 61

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.14/30.12.2019.I.84.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**SALIMOVA YULDUZ ISAKOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI  
FAOLLASHTIRISH**

**08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4564 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.imrs.uz](http://www.imrs.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Zokirov Sayidfozil Sayidakbarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

**Rasmiy opponentlar:**

**Urunov Asror Alijonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Tashtayeva Saida Kaxarovna**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.I.84.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «29» aprel soat 14:50 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33-A-uy. Tel.: (71) 244-01-17. E-mail: [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (50 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33-A-uy. Tel.: (71) 244-01-17. E-mail: [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «18» aprel kuni tarqatildi.  
(2025-yil «18» aprel № 7 raqamli reestr bayonnomasi).



**T. M. Ahmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**M.M. Karimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

**D.M. Karimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b., iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi hududlarni barqaror va kompleks rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, doimiy ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiyotning real sektori samaradorligini oshirish, yashil, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, aholining xavfsiz yashashini ta'minlash hamda iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Buning natijasida shahar aholi soni va ulushi oxirgi yillarda jadal sur'atlarda o'sdi. Xususan, "1990-2020-yillar mobaynida dunyoda urbanizatsiya darajasi 14 foizga oshdi. Jami aholi tarkibida shahar aholisining salmog'i 43,0 dan 57,0 foizga ko'paydi".<sup>1</sup>

Urbanizatsiya iqtisodiy o'sish, hududlarni kompleks rivojlantirish va infratuzilma obyektlarini mutanosib rivojlantirishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Buni dunyoning turli mamlakatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ular orasida shaharlarni rivojlantirishning chaqiruvlari, muammolari va istiqbollari, urbanizatsiya barqaror rivojlanish dvigateli sifatida, yashil va raqamli texnologiyalarni joriy etishda shaharlarning roli, yirik aglomeratsiya tizimlarini tartibga solish, alohida shaharlardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning drayveri sifatida foydalanish, zamonaviy va xavfsiz shahar arxitekturasini shakllantirish va boshqalar kiradi.

O'zbekistonda shaharsozlikni kompleks rivojlantirish va shaharlar shahar tarmog'ini yaxshilash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shahar aholi punklari va shahar aglomeratsiyalarini jadal rivojlantirish sohasida institutsional o'zgarishlar ro'y bermoqda. "Urbanizatsiya – 2040" konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilmoqda.<sup>2</sup> Shu bilan birga, davlatimiz shaharsozlik siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash, turli kattalikdagi shaharlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash, mamlakatda urbanizatsiya darajasini oshirish, iqtisodiy o'sishning innovatsion usullarini izlash va hududlarda shaharlar rivojlanishini tartibga solish O'zbekiston uchun nihoyatda dolzarb va zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223–sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60–sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158–sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va

<sup>1</sup> Петрушина О.В., Сергеева Н.М., Власова О.В., Зюкин Д.А. Влияние урбанизации на социально-экономическое развитие региона // Международный сельскохозяйственный журнал, 2023, том 66, № 3 (393), с. 251-254. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-urbanizatsii-na-sotsialno-ekonomicheskoe-razvitie-regiona>

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по внедрению новой системы обеспечения высокого экономического роста и занятости населения в регионах, а также повышению роли и ответственности местных хокимиятов в данном направлении» №УП-223 от 20 декабря 2024 года.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “2025-2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qo‘shma qarori, shuningdek urbanizatsiya sohasiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ko‘rib chiqilayotgan muammoni o‘rganishning nazariy asosi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayonining bosqichlari va xususiyatlari A.Axiyezer, L.Kogan, O.N.Yaniskiy, M.Barg, E.Berjess, M.Veber, X.Geyer, Dj.Djibbs, E.Dyurkgeym, S.Zokirov, G.Zimmel, R.Park, O.Pirojenko, Yu.Pivovarov, A.Raimova, F.Tyonnis, G.Shimemi ishlarida aks ettirilgan.<sup>3</sup>

O‘zbekiston aholi punklari shaharsozlik jihatidan X.Polatov, X.Kamilova, D.Isamuxamedova, T.Mamatmusayev, K.Sattarova va boshqa olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan.<sup>4</sup>

Shaharlarning geografik xususiyatlari Z.Akramov, J.Zayonchkovskaya, T.Raimov, N.Nozdrina, N.Zubarevich, G.Lappo, P.Polyan, V.Leksin, T.G.Nefedova, A.Treyvish va boshqa olimlar ishlarida tadqiq etilgan.<sup>5</sup>

---

<sup>3</sup> Ахиезер А.С., Коган Л.Б., Яницкий О.Н. Урбанизация, общество и научно-техническая революция // Вопросы философии. – Москва, 1969. – № 2. – С. 43–53; Жуков Е.М., Барг М.А., Черняк Е.Б., Павлов В.И. Теоретические проблемы всемирно-исторического процесса. – Москва: Издательство «Наука», 1979. – С.85–115; Бёрджесс Э. Рост города. Введение в исследовательский проект // История социологии XX века: университетский курс. – Москва, 2007. – С. 62.; Вебер М. Город. Избранные произведения. – Перевод с немецкого и общая редакция: Ю. Н. Давыдов. – Москва, «Прогресс», 1990. – С. 309–446; Geyer H.S., Kontuly T. A theoretical foundation of the concept of differential urbanization // International Regional Science Review. – 1993. – Vol. 15, № 3. – P. 157–177; Gibbs J. The Evolution of Population Concentration // Economic Geography. – 1963. – Vol. 39, № 2. – P. 119–129; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. / Пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. – Москва: Канон, 1996. – С. 256–309; Зокиров С. Совершенствование системы регулирования процессов урбанизации в Узбекистане. Автореф. дисс. на соис. степени доктора экон. Наук (Doctor of Science). –Ташкент, 2021. – С. 51; Зиммель Г. Большие города и духовная жизнь / Пер. с нем. – Москва: Strelka Press, 2018. – С. 78–79; Парк Р. Город как социальная лаборатория // Социологическое обозрение. – Том 2. – № 3. 2002. – С. 3–12; Пироженко О.Ю. Понятие процесса урбанизации в теориях пространственного развития // Экономічний форум. 2012. № 4. С. 22–30; Пивоваров Ю.Л. Современная урбанизация. – Москва, 1994. – С. 11–168; Рaimova А. Строительство новых городов в Узбекистане в 1945–1990 годы / Academic research in educational sciences. – Ч. 1. (3). – Ташкент, 2020. – С. 1122–1128; Тённис Ф. Общность. Основные понятия чистой социологии. - СПб.: Фонд «Университет», 2002. - С. 101–248; Shimemi G. Dynamics of Urban Development. – London: Aldershot. –1981.– 28 p.

<sup>4</sup> Исамухамедова Д.У. Шахарсозлик асослари ва ландшафт архитектураси: ўқув қўлланма. – 1 қисм // Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт. – 2000. – 98 б.; Маматмусаев Т. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг типологик ривожланиши. – Тошкент, 2019. – 216 б.; Полатов Х. Шаҳарсозлик тарихи: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008. – 296 б.; Камилова Х.Х., Саттарова К.Д. Проектирование многофункционального парка города: учебное пособие. – Ташкент: ТАСИ, 2007 – 109 с.

<sup>5</sup> Акромов З.М., Раимов Т.И. Об экономико-географическом изучении городов Узбекистана // Научные труды ТашГУ. – Ташкент, 1964. – С.5–35; Зайончковская Ж.А., Ноздрина Н.В. Миграционный опыт населения региональных центров России (на примере социологического опроса в 10 городах) // Проблемы прогнозирования. – Москва, 2008. – № 4. – С. 98–112; Зубаревич Н.В. Страна городов: теория и практика российской урбанизации // Стимулы, парадоксы, провалы: Город глазами экономистов. – Москва: Strelka Press. – 2015. – С. 23.; Лаппо Г. М., Полян П. М. Результаты урбанизации в России к концу XX века // Мир России. – Москва, 1999. – № 4. – С. 35–47; Лексин В.Н. Территориальная организация общества и

Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini I.Yudin, Ye.Andreeva, A.Suxova, G.Budanov, V.Ivanter, Ye.Kolomak, A.Mirzayeva, M.Numanova, R.Ramazanov, R.Baxitova, S.Rastvorseva, A.Tkacheva kabi xorijlik olimlar o'rgananlar.<sup>6</sup>

Shaharlar rivojlanishining mintaqaviy jihatlarini o'rganishga E.Axmedov, M.Abdusalyamov, O.Ata-Mirzayev, A.Soliyev, A.Qodirov, T.Axmedov, A.Sodiqov, B.Valiyev, A.Mamatkulov, F.Egamberdiyev, A.Urunov, B.Ruzmetov, E. Yakubova, Sh.Otaboyev, S.Tashtayeva, N.Umarova, M.Egamberdiyeva va boshqa o'zbekistonlik olimlar ma'lum darajada hissa qo'shganlar.<sup>7</sup>

Shu bilan birga, xorijiy va o'zbek adabiyotida hududlarning kompleks rivojlantirish prizmasi orqali urbanizatsiyani o'rganish, turli hududiy darajadagi shaharlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, yuqori demografik yuk hamda

---

территориальное устройство государства // Регион: экономика и социология. – Москва, 2010. – № 1. – С. 5–21; Нефедова Т.Г., Трейвиш А.И. Теория дифференциальной урбанизации и иерархия городов в России на рубеже XXI века // Проблемы урбанизации на рубеже веков. – Москва: Издательство МГУ, 2002. – С. 71–87.

<sup>6</sup> Андреева Е.Г., Сухова А.Н. Экономический рост: модели экономического роста // Омский научный вестник – Омск, 2011. – № 6. – С. 46–50; Буданов Г.А. Экономические школы об экономическом росте и необходимости социальной защиты населения // Социально-экономические реформы: региональный аспект. – Москва, 2001. – № 3. – С. 56–58; Ивантер В.В. Стратегия перехода к экономическому росту // Проблемы прогнозирования. – 2016. – № 1. – С. 3–7; Коломак Е.А. Оценка влияния урбанизации на экономический рост в России // Регион: экономика и социология. – 2011. – № 4. – С. 51–69; Мирзаева А. Урбанизация как фактор стабильного экономического роста // Экономика и финансы. – Ташкент, 2019. – № 11(31). – С. 9–16; Нуманова М. Роль урбанизации как фактор ведущий к росту благосостояния развития городских жителей // Иктисодиёт ва таълим. – №1. – Ташкент, 2023. – С. 400–407; Рамазанов Р.Р., Бахитова Р.Х. Роль экстерналий в экономическом росте города // Математические методы и модели в исследовании современных проблем экономики и общества. Материалы Всероссийской научно-практической конференции – Уфа: Аэтерна, 2014. – С. 73–76; Растворцева С.Н., Ткачева А.С. К вопросу об увеличении темпов роста и обеспечении конкурентоспособности экономики регионов России // Заметки ученого. – Москва, 2016. – № 3. – С. 92–96.

<sup>7</sup> Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1992. –112 с.; Салиев А. С. Современная урбанизация в Узбекистане: общие и региональные особенности // Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: монография / под ред. акад. Р.А. Убайдуллаевой. – Ташкент, 2012. – С. 54–66; Ата-Мирзаев О., Умарова Н. Демографическая ситуация в Узбекистане // Социальная политика в постсоциалистическом обществе. – Ташкент: Университет, 2006. – С. 230–242; Эгамбердиева М.М., Таштаева С.К., Рахманов Б.Б. Территориальные особенности урбанизации и развитие городов в Узбекистане // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – Москва, 2017. – Часть 2, № 6 (101). – 4 с.; Ахмедов Э. А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Ташкент: Абу Али Ибн Сино, 2002. – 224 б.; Кодиров А.М. и другие. Миллий иктисодиётни модернизациялаш шароитида саноат корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш. Монография.-Ташкент: «Iqtisodiyot», 2013.-436 б.; Абдусаломов М. О целях и методологических основах региональных политики. // «Современные проблемы региональной экономики» сборник статьи/ НИЦ «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ. -Ташкент, 2015. С. 6–11.; Содиков А. Худудий ривожланиш стратегиялари ишлаб чиқишнинг концептуал асослари. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов / под общей редакцией Т.Ахмедова / Ташкент: IFMR, 2019. –354 с.; Валиев Б. Ўзбекистон худудлари ривожланиши стратегияларини шакллантириш шароитида инвестицияларнинг замонавий тенденциялари ва истиқболлари. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов / под общей редакцией. Т.Ахмедова. – Ташкент: IFMR, 2019. – С. 370; Madaliev A.A., Mamatkulov A.V Innovative Approach to the Complex Development of the Agricultural Sector. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – №2(12). – р. 48-51; Эгамбердиев Ф.Т. и другие. Минтақалар иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш: монография. – Ташкент, 2020. – 204 с.; Урунов А.А. Региональная экономика: учебное пособие по направлению подготовки 38.03.01 Экономика (уровень бакалавриата). – Часть 2.— Москва: ГУУ, 2021. — 221 с.; Отабоев Ш. Научно-практические вопросы государственного регулирования регионального развития // Россия: тенденции и перспективы развития. – Москва, 2021. – С.1061–1064; Рuzметов Б. Региональная экономика. Опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. - Ташкент: Фан, 2003. -219 с.

raqamli “yashil” texnologiyalarni joriy etish sharoitida shahar aholi punktlarining rivojlanishiga oid ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Bu esa ushbu dissertatsiya tadqiqotining mavzusi dolzarbligini tasdiqlaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Makroiqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar institutining “2030 yilgacha Urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish” ilmiy loyihasining ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston hududlarida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

urbanizatsiya rivojlanishining nazariy va konseptual asoslarini umumlashtirish;

shaharlar qulayligini aniqlashning uslubiy yondashuvlari va xususiyatlarini asoslash;

urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirishning xorijiy tajribasini ularni O‘zbekistonda joriy etish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganish;

urbanizatsiya rivojlanish darajasini baholash va shaharlarning tizimli muammolarini aniqlash;

urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirishning asosiy omillari va zaruriy shartlarini aniqlash;

urbanizatsiyani rivojlantirish va tartibga solishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish;

2030 yilgacha bo‘lgan davrda urbanizatsiyani rivojlantirishning maqsadli parametrlarini prognozlash;

O‘zbekiston hududlarida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston shaharlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** urbanizatsiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida tizimli va strategik, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslash, empirik, prognozashtirish tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

shahar aholi punktlarida uy-joy qurilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish maqsadida qurilish-pudrat tashkilotlari “ishonchlilik toifasi” reytingini yuqori, o‘rta, qoniqarli va quyi darajalar yordamida aniqlash zarurati asoslangan;

Toshkent shahri hokimligi huzurida tadbirkorlik subyektlariga ijara va boshqaruvga berish, ularning samaradorligini baholab borish bilan shug‘ullanuvchi investitsiya kompaniyasi hamda xususiylashtirilgan yer uchastkalari daromadlaridan shakllantirilib, shahar infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan jamg‘armani tashkil etish taklif qilingan;

Qozikent, Uzunnavo, To‘qmang‘it qishloq aholi punktlarni Qarshi shahriga, Minglar, Gulgunpo‘sh, Jarqo‘rg‘on qishloq aholi punktlarni Kitob shahriga qo‘shish hamda shahar aholi punktlarini ixchamligini va qulay joylashuvini ta‘minlash orqali hududlarning, jumladan, Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizgacha oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

yirik qishloq aholi punktlarini shahar manzilgohlariga aylantirish, qishloq aholisining shaharlarga migratsiya oqimlarini ko‘paytirish, o‘rta va yirik shaharlarni shuningdek, shahar aglomeratsiyalarni kompleks rivojlantirish orqali 2030-yilda O‘zbekistonda urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazishning prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

shaharlar qulaylik indeksini baholashning takomillashtirilgan uslubiyati tayyorlangan;

Toshkent shahri misolida hududiy va urbanizatsiya rivojlanishining barcha subyektlari o‘rtasidagi sheriklikni kuchaytiruvchi maxsus kompaniya va shaharni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

urbanizatsiya darajasining 2030 yilgacha mo‘ljallangan maqsadli prognozi ishlab chiqildi va unga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan;

mamlakatning hududlarda urbanizatsiya jarayonini faollashtirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlar rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasidan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mas‘ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ishda keltirilgan konseptual qoidalar, uslubiy ishlanmalar va amaliy tavsiyalar urbanizatsiya va shaharsozlikning dolzarb muammolarini hal qilishga, mintaqaviy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq holda urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirishga, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash uslubiyotini takomillashtirishga hamda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tadqiqot natijalaridan:

mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tartibga solishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirishda;

alohida shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishiga oid dasturlarni ishlab chiqish, shaharlar rivojlanishini ilmiy prognozlash va indikativ rejalashtirish jarayonida;

shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash va shaharlar Bosh rejalarini ishlab chiqishda;

markaziy va hududiy boshqaruv organlari rahbarlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida, oliy o‘quv yurtlarida “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Shaharlar iqtisodiyoti”, “Milliy iqtisodiyot”, “Geourbanistika” kurslarini o‘qitish jarayonida foydalaniladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

1. Yuqori (A=65% dan ortiq), oʻrta (B=35-55%), qoniqarli (C=20-30%) va quyi (D=7% dan kam) darajalarga boʻlinish asosida qurilish-pudrat tashkilotlarining “ishonchlilik” reytingini aniqlash orqali shahar aholi punktlarida uy-joy qurilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan taklif Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi “Loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 699-sonli Qarorining 1-ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26 dekabrda 05/39-1-3-18379-son maʼlumotnomasi). Natijada, qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini hamda natijadorligini oshirish, qurilish-montaj ishlari sifatini oshirish va shaharlarning kompleks rivojlanishini taʼminlash imkoniyati yaratildi.

2. Toshkent shahri hokimligi huzurida tadbirkorlik subyektlariga ijara va boshqaruvga berish, ularning samaradorligini baholab borish bilan shugʻullanuvchi investitsiya kompaniyasi hamda xususiy lashtirilgan yer uchastkalari daromadlaridan shakllantirilib, shahar infratuzilmasini rivojlantirish bilan bogʻliq loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan jamgʻarma tashkil etish boʻyicha ishlab chiqilgan taklif Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-iyuldagi “Toshkent shahrini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 112-sonli Farmonining 4-6 bandlarini hamda 2-4 ilovalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26 dekabrda 05/39-1-3-18379-son maʼlumotnomasi). Ushbu taklif asosida Toshkent shahri hokimligi huzurida “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati hamda Toshkent shahrini rivojlantirish jamgʻarmasi tashkil etildi.

3. Aholisi 5500 kishidan ortiq boʻlgan Qozikent, Uzunnavo, Toʻqmangʻit qishloq aholi punktlari Qarshi shahriga, aholisi 4200 dan ziyod boʻlgan Minglar, Gulgunpoʻsht, Jarqoʻrgʻon qishloq aholi punktlarini Kitob shahriga qoʻshish hamda aholisi 1,43 milliondan ziyod boʻlgan shahar aholi punktlarining ixchamligini va qulay joylashuvini taʼminlash orqali Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmonining 2-ilovasi 154-bandini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26 dekabrda 05/39-1-3-18379-son maʼlumotnomasi). Ushbu taklifdan Qashqadaryo viloyati shaharlari Bosh rejalarini tuzishda, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish maqsadli dasturlarini tayyorlashda foydalanildi.

4. Yirik qishloq aholi punktlarini shahar aholi punktlariga aylantirish, qishloq aholisining shaharlarga migratsiya oqimlarini koʻpaytirish, oʻrta va yirik shaharlarni kompleks rivojlantirish orqali 2030-yilda Oʻzbekistonda urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish boʻyicha prognoz hisob-kitoblari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasida urbanizatsiyani

2040-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni loyihasini (ID-3338) ishlab chiqishida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26 dekabrda 05/39-1-3-18379-son ma'lumotnomasi). Urbanizatsiya prognoz natijalaridan kichik, o'rta, katta va yirik shaharlarni kompleks rivojlantirish, shaharlarda quriladigan xonadonlar hajmini oshirish, millionlik-shaharlarni va shahar aglomeratsiyalari sonini oshirish hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solishda inobatga olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro ilmiy amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shuningdek 4 ta maqola – xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 150 sahifa asosiy matnidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mazmunining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida urbanizatsiyaga oid tadqiqotlarning nazariy asoslari tahlil qilingan, tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan, urbanizatsiyaning metodologik jihatlari tavsiflangan urbanizatsiya siyosatining xorijiy amaliyoti tadqiq etilgan, «urbanizatsiya» va «hududlarning urbanizatsiyalashganligi» tushunchalari ko'rib chiqilgan va bu kategoriyalarning iqtisodiy mazmuniga aniqlik kiritilgan.

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda urbanizatsiya tushunchasiga yagona ta'rif berilmagan. Turli tadqiqotchi olimlar va ekspertlarning ushbu tushunchaga bo'lgan qarashlari 1-jadvalda o'z aksini topgan.

Muallif tomonidan «urbanizatsiya» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Urbanizatsiya –nafaqat shaharlar soni, shahar aholisi hajmi va ulushining ko'payishi, balki shahar iqtisodiyotini rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, innovatsion va institutsional jihatlarni qamrab olgan, shahar qiyofasini va yashayotgan aholining yuqori hayot sifatini shakllantiradigan kompleks, o'zaro bog'liq va muvozanatli yondashuvni nazarda tutuvchi shaharlarning o'sishidir”. Ushbu talqinda shahar aholisining turmush tarzi yuqori sifati shakllanadi

va urbanizatsiyani barqaror shahar rivojlanishi uchun mintaqaviy siyosatning yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rish mumkin.

1-jadval

**“Urbanizatsiya” atamasiga ta’rifiy yondashuvlar<sup>8</sup>**

Tadqiqotchilar	Ta’rif
<b>Falsafiy-sotsiologik yondashuv</b>	
M. Veber, G. Zimmel, F. Tyonnis, A. Togayeva	Aholi punkti yashovchisining jamiyatdagi roliga ta’sir qilish jarayoni, shuningdek, shahar aholisiga xos bo’lgan o’ziga xos turmush tarzi va shahar muhitiga xos bo’lgan madaniy kontekstni ta’kidlaydi.
A. Axiyezer, L. Kogan., O. Yaniskiy	Xilma-xil amaliy hayotiy faoliyat shakllarining integratsiyalashuvi va taraqqiyoti jarayoni hamda muloqot taraqqiyoti, uning ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun moment, natija, shart-sharoit sifatida muloqotning konsratsiyalashuvini hamda intensivikasi rivojlantirish jahon-tarixiy jarayoni.
<b>Tarixiy-demografik yondashuv</b>	
O. Ata-Mirzayev, Yu. Pivovarov, V. Lopatenko, S. Shodmanova	Shaharlar transformatsiyasining tarixiy jarayoni va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli, shahar turmush tarzi va madaniyatining oshishi, shahar aholi punktlarining jadal shakllanishi jarayoni sifatida tavsiflanadi, ularning asosiy xususiyati cheklangan hududda aholining to’planishi hisoblanadi.
<b>Shaharsozlik yondashuvi</b>	
F. Ishonkulova	Yer resurslarini boshqarish, shaharni rejalashtirish, shahar infratuzilmasini rivojlantirish va uy-joy qurilishi samaradorligining uzoq davom etadigan va keng qamrovli jarayoni, shahar aholisi sonining o’sishi bilan birga keladigan butun masalalar va harakatlar majmui.
<b>Iqtisodiy geografik yondashuv</b>	
Sh. Kurbanov	Hududiy xususiyatlari mintaqaning geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti va resurslari, geodemografik vaziyat, iqtisodiyotning ixtisoslashuvi va tarmoq tarkibi, transport tizimining rivojlanishi, geoeologik vaziyat bilan bog’liq bo’lgan turli mamlakatlar sharoitida bir xil kechmaydigan murakkab, ko’p qirrali jarayon.
Ye. Kolomak, G. Lappo	Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, sanoat ishlab chiqarishining o’sishi, aglomeratsiyaga moyilligi ortib borayotgan aholi zichligining ortishi, masshtabdan ta’sirning ortishi, shaharlarning o’sishi va shahar turmush tarzining shakllanishi jarayoni.
<b>Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv</b>	
E. Dyurkgeym, K. Marks, F. Engels	Sanoat ishlab chiqarishining o’sishi, mehnat unumdorligining oshishi, mehnatning keng tabaqalanishi va ixtisoslashuvi, aholi zichligi, shaharda ishchi kuchining ko’payishi, aholining jamlanishi va zonalashtirilishi.
S. Zokirov	Iqtisodiy rivojlanish jarayonida funksional transformatsiyalanadigan qishloq joylariga nisbatan kichik hududlarda aholi zichligining yuqoriligi, band aholining sanoat va xizmat ko’rsatish sohaslarida to’planishi bilan ajralib turadigan shahar aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy yetakchilik mavqei.
Djang Yan	Muvaffaqiyati samarali boshqaruv va rejalashtirishga bog’liq ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy o’sish dvigateli.
<b>Ekologik yondashuv</b>	
E. Berdjess, R. Park	Inson tomonidan atrof-muhitni, atrofda hududning areallarini tashkil etish shakllari, usullari, tamoyillarini, o’zlashtirilmagan makonni o’zlashtirish qobiliyatini, uni muhitning obyektiv predmetli qonuniyatlariga muvofiq tashkil etishni konsentrlangan tarzda ifodalanishi.

“Hududlarning urbanizatsiyalashganligi” tushunchasining an’anaviy ta’rifi ushbu kontseptsiyaga turli yondashuvlarni tahlil qilish asosida kengaytirildi. Bu nafaqat shahar aholisini qayta joylashtirishni rivojlantirish va shahar tizimlarining shakllanishi, balki shahar rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, innovatsion

<sup>8</sup> Manba: O’rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

jihatlarni va umuman, ularning barqaror rivojlanishi va shahar muhitini shakllantirishni aks ettiruvchi miqdoriy va sifat xususiyatlari majmui ko'inishidagi murakkab hodisadir. Bir tomondan, ushbu kategoriya "hududlarning urbanizatsiyalashganligi" tushunchasining umumiy qabul qilingan ta'rifini to'ldiradi. Bu shaharlar va shaharlarning joylashuvi tizimlarining shakllanishi sifatida talqin qilinadi. Boshqa tomondan, keng qo'llaniladigan tushunchadan farqli o'laroq, ko'rsatkichlar (shahar aholisi soni, aholi zichligi va shahar tarmog'ining zichligi) asosida aniqlanadigan urbanizatsiya darajasi shahar iqtisodiyotini kompleks barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi.

Tadqiqot natijasi asosida ilmiy tadqiqotlarning geografik va shaharsozlik, mintaqaviy, iqtisodiy va iqtisodiy-geografik yo'nalishi ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, aglomeratsiya, konurbatsiya, megalopolis, megapolis, shaharlar-mintaqa kabi urbanizatsiya joylashuv tizimining asosiy shakllari aniqlangan.

Dj.Djibbs, X.Geyer, T.Kontuli, L.Klaassen, G.Shimemi, R.Nortem va boshqa olimlarning ishlari stadial nazariyalarni taqqoslashda ko'rib chiqilgan va ushbu jarayon dinamikasida quyidagi o'xshash xususiyatlar aniqlangan: urbanizatsiya sekin sur'atlar bilan boshlanadi, keyin jadal o'sish kuzatiladi, so'ng suburbanizatsiya va deurbanizatsiya jarayoni sodir bo'ladi.

Dissertatsiyada shaharlar qulaylik indeksini baholash uslubiyati takomillashtirildi. Urbanizatsiyani baholash ko'rsatkichlarini aniqlash asosida shaharlarning iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va innovatsion rivojlanishidagi real vaziyatni tavsiflovchi 20 ta, shundan 7 tasi – qo'shimcha yangi ko'rsatkich kiritgan holda shaharlarning "qulaylik" indeksini baholashning takomillashtirilgan uslubiy tavsiyalari taklif etildi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish hajmi; shaharlarda ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarining mavjud manbalari ulushi; shaharlardagi bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida o'rinlar bilan ta'minlanganlik yoki shaharlardagi 1-6 yoshdagi bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida o'rinlar bilan ta'minlanganlik; aholining shifoxona yotoqlari bilan ta'minlanganlik; aholining shifoxona muassasalari o'rinlari bilan ta'minlanganlik; pedagog xodimlar mutaxassislarining band bo'lganlarning umumiy sonidagi ulushi; 1000 aholiga to'g'ri keladigan madaniy muassasalar soni; ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotning ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi kabi yangi ko'rsatkichlar qo'shilgan. Integral indeksni hisoblash barcha tashkil etuvchilarning yig'ma indekslarini ko'p o'lchovli o'rta qiymat formulasi bo'yicha jamlash yo'li bilan amalga oshirildi. Indeks tashkil etuvchilarining vazn koeffitsiyentlari shaharni kompleks rivojlantirish uchun muvozanatli deb belgilandi.

Ilmiy ishda 4 ta asosiy mezon (kadrlar siyosati, mutaxassislarining malaka va salohiyatini aniqlash, moliyaviy ko'rsatkichlar, raqobatbardoshlik, moddiy-texnika bazasi) asosida va 36 ko'rsatkichlardan iborat yuqori (A=65% dan ortiq), o'rta (B=35-55%), qoniqarli (C=20-30%) va quyi (D=7% dan kam) darajalarga bo'lgan holda uy-joy qurilishi bilan shug'ullanuvchi qurilish-pudrat tashkilotlari "ishonchlilik" reyting metodikasi ishlab chiqilgan. Reytingni baholash yuqori

sifatli uy-joy qurilishi orqali shaharlarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

Urbanizatsiya jarayonining barcha bosqichlariga ta'sir etuvchi va namoyon bo'luvchi omillardan iborat omillar aniqlandi (1-rasm).



**1-rasm. Urbanizatsiyaga ta'sir etuvchi omillar<sup>9</sup>**

BMTning statistik ma'lumotlarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, dunyoda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining deyarli barcha mamlakatlarda shahar aholisi sonining barqaror o'sish (2050-yilga kelib shahar aholisining ulushi 68,4 foizgacha o'sishi prognoz qilinmoqda<sup>10</sup>); urbanizatsiya jarayonining bosqichma-bosqich (doindustrial, industrial, postindustrial bosqich) hamda dunyoda megapolislar sonining o'sish (1950-yilda 8 mln kishi yashagan bo'lsa, 2030-yilga kelib 50 mln kishi yashashi prognoz qilinmoqda<sup>11</sup>) tendensiyalari mavjudligi isbotlangan.

Ajratib olingan mezonlar (to'g'ridan-to'g'ri qonunchilik ta'sirining mavjudligi, urbanizatsiyaning maqsadi va modeli, urbanizatsiyani tartibga solish bo'yicha maxsus davlat hokimiyati organining mavjudligi, qo'llaniladigan tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy vositalar hamda erishiladigan samaralar) ga muvofiq xorijiy mamlakatlardagi urbanizatsiya siyosatining qiyosiy tahlili o'tkazilib, keltirilgan ijobiy amaliyot bilan O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda shaharlarni tartibga solish mexanizmlarini baholashning qiyosiy jadvali tuzildi (2-jadval).

<sup>9</sup> Manba: O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>10</sup> Manba: Щербakova Ye. Прогноз городского и сельского населения мира // Demoskop Weekly. – 2018. – № 775–776.

<sup>11</sup> Manba: World Urbanization Prospects / United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division, 2024. – <https://population.un.org/wup>.

**O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda shaharlarni tartibga solish mexanizmlarini ijobiy amaliyot bilan qiyosiy baholash<sup>12</sup>**

<b>№</b>	<b>Instrumentlar</b>	<b>Xorijiy mamlakatlar</b>	<b>Uzbekiston</b>
1.	Strategik rejalashtirish	To‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunchilikning mavjudligi (Xitoy, Yaponiya, Koreya, Polsha, Turkiya).	Hududiy dasturlarning mavjudligi, ammo urbanizatsiyani tartibga soluvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun hujjatining yo‘qligi.
2.	Urbanizatsiyani boshqarish organi	Urbanizatsiyani tartibga solish uchun mas‘ul bo‘lgan maxsus tuzilmalarning mavjudligi (Xitoy, Turkiya).	Urbanizatsiya siyosatini olib borish Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuklatildi
3.	Tashkiliy va boshqaruv vositalari	Hokimiyatni nomarkazlashtirish, mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish va onlayn platformalar yaratish.	Hokimiyatni nomarkazlashtirish ishlari boshlanib, aholini boshqaruv qarorlarini qabul qilishga jalb etish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda.
		Ekologik siyosatni kuchaytirish va energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish.	O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi va dasturi qabul qilindi.
		Turli sanoat tarmoqlarining innovatsion klasterlarini rivojlantirish.	Paxta-to‘qimachilik, mevasabzavotchilik va boshqa agrosanoat klasterlari rivojlangan.
		Innovatsiyalar va nou-xaularni joriy etish, yuqori texnologik faoliyat turlarini ishlab chiqarish markazlarini shakllantirish.	“Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi tasdiqlandi hamda IT-park tashkil etildi.
		Hududlararo integratsiya.	Hududlararo integratsiya ishlari boshlandi.
		Aglomeratsiya chegaralari doirasida maxsus ma‘muriy-hududiy birliklarni tashkil etish.	Aglomeratsiyani tartibga soluvchi huquqiy hujjatning mavjud emasligi.
		Shaharlarni kompleks rivojlantirishni ta‘minlash.	Ushbu yo‘nalishlarda ishlar boshlangan bo‘lsa-da, shaharlarni kompleks rivojlantirish, samarali migratsiya siyosati va boshqalarni ta‘minlash uchun hali ham yetarli shart-sharoitlar mavjud emas.
		Migratsiya oqimlarini tartibga solish bo‘yicha ma‘muriy chora-tadbirlar.	
	Mintaqaviy va ixcham shaharsozlik siyosatini rivojlantirish.		
4.	Moliyaviy instrumentlar	- Davlat va mahalliy byudjetlar; - DXSH; - Xususiy va xorijiy (ichki va tashqi) investitsiyalar; - Shaharni rivojlantirishning aniq loyihalari uchun beg‘araz subsidiyalar, preferensiyalar, imtiyozlar va grantlar ko‘rinishidagi moliyaviy yordam; - Shaharlarni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish.	Shaharlarni rivojlantirish jamg‘armasidan tashqari barcha moliyaviy vositalarning mavjudligi.

Xorijiy mamlakatlarda urbanizatsiyani tartibga solish uchun qo‘llaniladigan vositalar va usullar umumlashtirilgan:

a) urbanizatsiya sohasidagi strategik rejalashtirish ba‘zilarida hududiy rivojlanish strategiyalari, konsepsiyalari, dasturlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, boshqalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunchilik ta‘siriga ega;

b) urbanizatsiyani boshqarish tegishli davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan. Biroq, ba‘zi mamlakatlarda urbanizatsiya siyosatini ishlab chiqish

<sup>12</sup> Manba: O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

va amalga oshirish bilan shug'ullanadigan muvofiqlashtiruvchi davlat organi mavjud bo'lsa, boshqalarida esa mavjud emas hamda bu funktsiya bitta-ikkita yetakchi yoki muvofiqlashtiruvchi organga beriladi;

v) tashkiliy-boshqaruv vositalari orqali qo'llab-quvvatlash: urbanizatsiya milliy rejalarini, o'sish qutblari va zonalashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish; "qishloq – shahar" migratsiya oqimlarini tartibga solishning ma'muriy chora-tadbirlari; boshqaruvni hududiy nomarkazlashtirish va mahalliy hamjamiyatlarning ishtiroki; maxsus tashkiliy tuzilmalarni yaratish; milliy va mahalliy darajada shaharsozlik siyosati; ekologik siyosatni kuchaytirish va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish; yerdan foydalanishni boshqarish va boshqa tashkiliy-boshqaruv vositalari orqali qo'llab-quvvatlash;


g) davlat va mahalliy byudjetlar, xususiy va xorijiy (ichki va tashqi) investitsiyalar, aniq shaharni rivojlantirish loyihalari uchun beg'araz subsidiyalar va grantlar ko'rinishidagi moliyaviy yordam, DXSh va ixtisoslashtirilgan Shaharlarni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish kabi moliyaviy vositalar orqali qo'llab-quvvatlash.

Dissertatsiyaning "**O'zbekistonda shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlarining holati va shart-sharoitlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston shaharlarining qulaylik indeksi aniqlangan, O'zbekistonning urbanizatsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, shuningdek, urbanizatsiyaga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasida shaharlarni rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Jumladan:

urbanizatsiyaning past darajasi bilan tavsiflanadigan rivojlanishning boshlang'ich bosqichi;

hududlarning umumiy urbanizatsiya darajasining to'liqinsimon o'zgarishi (2-rasm);




**2-rasm. O'zbekistonning urbanizatsiya darajasi, %<sup>13</sup>**

2009-yilda shahar aholisining sur'atlari va ulushining keskin o'zgarishi; viloyatlarning urbanizatsiya darajasidagi hududiy tafovutlar (3-rasm);

shahar aholisining ulushi va zichligi ko'rsatkichlari bo'yicha hududlarning urbanizatsiya darajasini aks ettiruvchi shahar tizimlarining notekis joylashuvi;

yirik shaharlarning kam ifodalangan joylashuvi va shahar tarmog'ining notekis to'ldirilishi.

<sup>13</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



**3-rasm. O‘zbekiston hududlarida urbanizatsiya darajasi, %<sup>14</sup>**

O‘zbekistonda urbanizatsiyani boshqarishning shakllangan amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Jumladan: shaharlarning o‘shishi siyosatining soxta urbanizatsiyaga olib keladigan sun’iy tabiati; migratsiya siyosatining samarasizligi; innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy qilmasdan texnologik jihatdan eskirgan boshqaruv tizimi; kichik va o‘rta shaharlar rivojlanishining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi; shahar hududlarini obodonlashtirish uchun byudjet mablag‘larining cheklanganligi.

Urbanizatsiyani amalga oshirish asosida mintaqaviy muammolarni hal qilish maqsadga muvofiqligi va O‘zbekistonda mintaqaviy rivojlanish bilan uyg‘unlashgan yagona urbanizatsiya siyosatini ishlab chiqish zarurligi haqidagi xulosa asoslandi.

Shaharlarning qulaylik indeksini baholashning takomillashtirilgan uslubiyati sinovdan o‘tkazildi. Natijada shaharlarning urbanizatsiya darajasidagi mintaqaviy farqlarning asosiy omillari aniqlandi. Jumladan, iqtisodiy ko‘rsatkichlarda korxonalarining rentabelligi ustunlik qiladi. Ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosida aholining tabiiy o‘shishi, migratsiya saldosini, pullik xizmatlar va chakana savdo aylanmasi hajmining o‘shishi baholanadi. Innovatsion omil faqat Toshkentda namoyon bo‘lgan. ekologik komponent esa barcha shaharlar uchun ahamiyatsiz.

Integral indeks asosida shaharlar qulaylik indeksi bo‘yicha guruhlashtirildi va unga ko‘ra uchta guruhga ajratildi (4-rasm). Buning natijasida Toshkent shahri so‘zsiz yetakchi mavqeni egalladi. O‘zbekiston shaharlarining aksariyati o‘rtacha qulayliklar guruhiga kiritilgan (Urganch, Navoiy, Farg‘ona, Guliston, Ohangaron, Samarqand, Zarafshon, Qo‘qon, Nurafshon, Xonobod, Chirchiq, Qarshi, Yangiyo‘l, Yangiyer, Termiz, Buxoro, Bekobod, Jizzax, Nukus, Xiva, Namangan, Marg‘ilon, Andijon, Shahrisabz, Quvasoy, Olmaliq). Angren eng noqulay shahar sifatida e’tirof etildi.

<sup>14</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



**4-rasm - Shaharlarning qulaylik indeksi bo'yicha guruhlanishi<sup>15</sup>**

Muallif tomonidan 21 ta shahar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar shaharlarni rivojlantirishda moliyalashtirish darajasi va investitsion jozibadorligi (eng ko'p, o'rtacha, eng kam va juda kam moliyalashtirish) bo'yicha guruhlashtirish va har bir guruh uchun "Obod mahalla" davlat dasturi doirasida moliyalashtiriladigan ustuvor sohalarni aniqlash imkonini berdi (3-jadval).

**3-jadval  
"Obod mahalla" dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi shaharlarini moliyalashtirish bo'yicha balli shkalalash va guruhlash<sup>16</sup>**

Shaharlar	Ballar yig'indisi va joyi		Yaxshilanish yo'nalishlari:				
			ichki yo'llar	kommunal tizimlar	ijtimoiy soha	aloqa va axborotlashtirish tizimlari	uy-joy fondi va bozor infratuzilmasi
Eng ko'p moliyalashtirish							
Samarqand	50	1	11	11	6	11	11
Termiz	34	2	6	3	11	7	7
Namangan	34	2	11	2	7	7	7
O'rtacha moliyalashtirish							
Quvasoy	29	3	11	4	10	2	2
Qo'qon	27	4	5	3	11	4	4
Qarshi	27	4	6	4	5	6	6
Nukus	23	5	8	4	7	3	1
Navoiy	20	6	4	4	4	4	4
Eng kam moliyalashtirish							
Xiva	15	7	6	1	2	3	3
Buxoro	13	8	1	2	4	3	3
Yangiyo'l	12	9	5	3	2	1	1
Chirchiq	10	10	6	1	1	1	1
Toshkent	9	11	4	1	2	1	1
Nurafshon	9	11	2	2	3	1	1
Bekobod	8	12	2	1	3	1	1
Ohangaron	8	12	3	1	2	1	1
Guliston	7	13	1	1	3	1	1
Jizzax	6	14	1	1	2	1	1
Zarafshon	4	15	6	1	-1	-1	-1
Juda kam moliyalashtirish							
Xonobod	-1	16	1	-1	-1	1	-1
Yangiye'r	-6	17	-1	-1	-2	-1	-1

<sup>15</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Isoh. – Raqamlar shaharlarning qulaylik indeksi bo'yicha rangni belgilaydi.

<sup>16</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Kapital qo'yilmalar hajmining o'zgarish dinamikasiga bog'liq holda turli darajadagi shaharlarni taqqoslash yirik va o'rta shaharlarning yuqori investitsion jozibadorligi va kichik shaharlarning past investitsion jozibadorligini; yirik va kichik shaharlarga investitsiyalar darajasi o'rtasidagi sezilarli tafovut va shaharlarning iqtisodiy rivojlanishi va obodonlashtirilishidagi notekisligini; 2020-2023-yillar davomida turli darajadagi shaharlarni rivojlantirishni moliyalashtirish sohasidagi ijobiy tendensiyalarni ko'rsatadi.


13860 ta umumqurilish-ijtimoiy va qurilish tashkilotlari hamda shosse va ko'priklarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashni amalga oshiruvchi 1699 ta tashkilotlarning ishonchligini baholash asosida O'zbekistonda AAA va AA reytingiga ega qurilish tashkilotlari mavjud emasligi aniqlandi. A ishonchlik darajasi faqat "DISCOVER INVEST" MCHJ umumqurilish-ijtimoiy tashkilotga va shosse va ko'priklarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bilan shug'ullanayotgan "NEW TECH SAMARKAND" MCHJ ga berilgan. Qurilish tashkilotlarining 80-90% past ishonchlik darajalariga ega bo'ldi. Mazkur metodika pudrat qurilish tashkilotining qobiliyati to'g'risidagi axborot bazasini yaratish, ularning reytingdagi o'rnini aniqlash, qurilish tashkilotlariga ma'lum "ishonchlik" toifasini berish va qurilish-pudrat tashkilotlarining ishonchlik darajasi va ularning nisbiy pozitsiyalarini tavsiflovchi xavf darajasi baholash imkon berdi. Bularning barchasi shaharlarni kompleks va barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari"** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish va tartibga solish konsepsiyasi asoslangan va uni amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar taklif etilgan. Konsepsiyaning 5-rasmda keltirilgan tarkibiy elementlari asoslandi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari va O'zbekistonda urbanizatsiyani boshqarish amaliyoti bilan belgilanadigan Konsepsiyani ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq urbanizatsiya darajasini 2030 yilgacha 60 foizga yetkazish ko'rsatilgan.

Konsepsiyaning maqsadi sifatida mintaqaviy rivojlanish bilan bog'liq holda urbanizatsiyani rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy asoslarini asoslash belgilandi. Respublika va hududiy darajadagi davlat boshqaruvi organlari bilan bir qatorda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'lim va ilmiy tuzilmalar, jamoat tashkilotlari, mahalliy hamjamiyatlarni o'z ichiga olgan boshqaruv subyektlari tarkibi kengaytirildi.

